Kasimova Zilola G‘ulomiddin qizi	
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUASSASALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	1116
Toshmurodov Abdurauf Ravshanovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ТОПЛИВНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА УЗБЕКИСТАНА – 2025.....	1122
Ш.К.Жалилов	
“O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI”	1126
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1130
Xusanov Durbek Nishanovich	
TURIZM XIZMATLARI TUSHUNCHASI VA ULARNI INNOVATSION TASHKIL ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....	1138
Najmidinov Azizbek Bahrom o‘g‘li	



MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA TURISTIK INFRATUZILMANI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI.....	1143
Xalmirzayev Axmadjan Axunovich, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	1149
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	
MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1156
Akramov Toxir Abdiraxmanovich	
SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1161
Adashev Azimjon Urinboyevich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1165
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHDA BOSHQARUV HISOBİ AXBOROTINING AHAMIYATI	1170
Xushvaqtova Nozanin Nurbek qizi	
OLIY TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYA JARAYONLARINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI VA ULARNING TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDAGI AHAMIYATI.....	1177
Ismoilova Feruza Kubaymurodovna	
EKOMARKETING STRATEGIYALARI ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH	1182
Qo'ziyev Jaloladdin Alisher o'g'li	
ENSURING INNOVATIVE ECONOMIC SECURITY IN THE KHOREZM REGION: WASTE RECYCLING AND CIRCULAR ECONOMY	1186
Madraximova Shohista Bahrom qizi	
KICHIK BIZNES FAOLIYATINI BAHOLASH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1191
Mavkulov Ravshan Nematjonovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA ISLOM MOLIYASINI JORIY QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJIRIBASIDAN FOYDALANISH.....	1195
Sultonov Baxtiyor Baxodirovich	
MINTAQAVIY IMIJNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1201
Duschanov Alisher Sherzod o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI	1206
Opaev Bysen Aymanovich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNESNI INVESTITSION KREDITLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH.....	1212
Yuldashev Fozil Turapovich	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJIRIBASI.....	1218
M.M.Muminova	
ИНТЕГРАЦИОННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ОПЕРАТОРА И ПРЕДПРИЯТИЙ МЕСТНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1223
Худаярова Мехрангиз Мурадовна	
TURIZMDA INDIVIDUALLASHTIRILGAN XIZMATLAR KONSEPSIYASI VA TAJRIBA TURIZMINING NAZARIY ASOSLARI.....	1230
Raxmatov Aziz Tolipovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK EKSTERNALIYALARNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1235
Smaylova Zarafshan	
XALQARO STANDARTLARDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1239
Abdunazarov Dilshoda Akromovna	



METALLURGIYA SANOATIDA EKOLOGIK TOZA TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH: MAQSADGA MUVOFIQLIGI VA NATIJALARI	1244
Karimov Ma'ruf Ixtiyorovich	
HUDUDIIY IQTISODIY O'SISH OMILLARINING EKONOMETRIK TAHLILI: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA	1248
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
INDUSTRIAL RIVOJLANISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK OQIBATLARI	1258
Ataniyazova M.B.	
OLIY TA'LIM RAQOBATBARDOSHLIGINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ROLI	1263
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
СИСТЕМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ ЭЛЕМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1269
Махмутходжаева Луиза Сайфулловна	
IQTISODIYOTDA "YASHIL" MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI	1274
Risqibekova Nozimaxon	
THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN BOOSTING TOURISM-RELATED BUSINESSES	1280
Farrukh Mamadiyrov Shukhratovich	
MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGINI BAHOLASH INDIKATORLARI VA USLUBLARI	1284
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich	
MAJOR INFLATIONARY FACTORS IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN AND ANTI-INFLATION POLICIES	1290
Koshanov Abdimurat Azat uli, Oralbaeva Diana Mukhit qizi	
ЦИФРОВАЯ ЭКОСИСТЕМА СОВРЕМЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА: МОДЕЛИ, МЕХАНИЗМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	1296
Бекова Азиза Алимовна	
SOLIQ MAJBURIYATLARINI HISOBGA OLISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1301
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIINING FISKAL VA IJTIMOIIY ROLI	1308
Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna	
MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA AGROTURIZMNI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI	1314
Egamberdiyeva Umriniso Tursunqulovna, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
OLIY TA'LIMDAGI RAQAMLI YECHIMLARNING SAMARADORLIGI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI	1320
Abduraxmanova Malika Abdujaparovna	
SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA AKVAPARK VA SUZISH HAVZALARI QURILISHINI TAHLIL QILISH HAMDA TAVSIYALAR BERISH	1326
Olimjonov Firdavs	
FISKAL FEDERALIZM NAZARIYASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI	1332
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Alijonov Ahadjon Hasanboy o'g'li	
OILAVIY MUHITDA QIZLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA)	1336
Qayimova Maftuna Tursunovna	
«YASHIL IPOTEKA» AMALIYOTI: XORIJIY TAJRIBALAR	1340
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОЦЕССОВ ПРИНЯТИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА. ФОРМИРОВАНИЕ НОВОЙ ПАРАДИГМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ	1344
Бурханова Шахноза Бобировна	
QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI KENGAYTIRISH MASALALARI	1353
Abduvoxidova N.G'., Karimova A.M.	



QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI KENGAYTIRISH MASALALARI

Abduvoxidova N.G'.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti magistri

Email: abduvoxidovanigina1@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Karimova A.M.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

“Bank ishi” kafedra mudirasi, i. f. d.

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanishida tijorat banklarining tutgan o'rni, ularning iqtisodiy jarayonlardagi roli hamda ushbu sohada faoliyatni kengaytirish yo'llari yoritilgan. Shuningdek, banklar tomonidan qimmatli qog'ozlar emissiyasi, investitsiya vositachiligi, brokerlik va dilerlik xizmatlarini rivojlantirish orqali milliy kapital bozorining samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: qimmatli qog'ozlar bozori, tijorat banklari, investitsiya, kapital bozori, moliyaviy barqarorlik, bank tizimi.

Abstract. This article describes the role of commercial banks in the development of the securities market in Uzbekistan and examines ways to expand their activities in this field. It analyzes the importance of securities issuance, investment intermediation, and the development of brokerage and dealer services to improve the efficiency of the national capital market.

Key words: securities market, commercial banks, investment, capital market, financial stability, banking system.

Аннотация. В статье рассматривается роль коммерческих банков в развитии рынка ценных бумаг в Узбекистане, а также анализируются пути расширения их деятельности в данной сфере. Особое внимание уделяется значению эмиссии ценных бумаг, инвестиционного посредничества и развитию брокерских и дилерских услуг как ключевых факторов повышения эффективности национального рынка капитала.

Ключевые слова: рынок ценных бумаг, коммерческие банки, инвестиции, рынок капитала, финансовая стабильность, банковская система.

KIRISH

Hozirgi davrda O'zbekiston iqtisodiyotida moliyaviy bozorlar, xususan, qimmatli qog'ozlar bozori tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu bozor orqali iqtisodiyotning real sektori uchun uzoq muddatli investitsiya resurslari shakllanadi. Tijorat banklari esa bu jarayonda asosiy ishtirokchi sifatida kapitalni qayta taqsimlash, investitsiya oqimlarini boshqarish va moliyaviy vositachilik xizmatlarini ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini kengaytirish mamlakatda moliya tizimi barqarorligini mustahkamlash, investorlar ishonchini oshirish hamda iqtisodiy o'sishni jadallashtirishning muhim omillaridan biridir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qimmatli qog'ozlar bozori mamlakat moliya tizimining eng muhim bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Mazkur bozor kapitalning erkin aylanishini, investitsiya jarayonlarining faollashuvini hamda iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlaydi. Shu boisdan bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, unga tijorat banklarini faol jalb etish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari sifatida nafaqat moliyaviy vositachilik funksiyasini bajaradi, balki iqtisodiyotning turli tarmoqlariga investitsiyalarni yo'naltirish orqali real sektorni ham qo'llab-quvvatlaydi. Ayniqsa, banklarning o'z qimmatli qog'ozlarini — aksiyalar, obligatsiyalar va depozit sertifikatlarini



emissiya qilishi ularning kapital bazasini mustahkamlashga hamda yangi moliyaviy resurslarni jalb etishga xizmat qiladi.

Shuningdek, O'zbekistonning so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan kapital bozorini erkinlashtirish islohotlari, "Toshkent" Respublika fond birjasining modernizatsiyasi hamda xalqaro reyting agentliklari bilan hamkorlikni kengaytirish banklar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Masalan, SQB (Sanoat Qurilish Bank) so'nggi yillarda qimmatli qog'ozlar bozorida faol ishtirok etib, xalqaro obligatsiyalarni (Eurobond) muvaffaqiyatli joylashtirgan ilk O'zbekiston banklaridan biri bo'ldi. Bu esa mamlakat moliya tizimining barqarorligini va banklarning investitsiya salohiyatini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

Shunday ekan, ushbu mavzuni o'rganishning dolzarbligi shundan iboratki, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini kengaytirish orqali moliyaviy tizimning barqarorligini mustahkamlash, investitsiya jarayonlarini jadallashtirish va xalqaro kapital bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklari faoliyatini kengaytirish masalalari moliyaviy tizimni diversifikatsiya qilish, investitsiya resurslarini safarbar etish va kapital bozorini chuqurlashtirish nuqtayi nazaridan iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar ushbu jarayonni banklarning universal moliyaviy institutlarga transformatsiyalashuvi bilan bevosita bog'liq holda tahlil qiladilar. Jumladan, E.T. Nazarov o'z tadqiqotlarida tijorat banklarining fond bozoridagi ishtiroki bank aktivlari tarkibini muvozanatlash, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va kredit xavflarini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega ekanini asoslaydi. Uning ishlarida banklar tomonidan obligatsiyalar emissiyasi va investitsion vositachilik faoliyatining institutsional mexanizmlari alohida e'tibor markazida bo'ladi.

D. Niyozmetov va X.O. Gulmurodov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O'zbekiston sharoitida qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanish darajasi va tijorat banklarining ushbu bozordagi faolligi o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan. Mualliflar banklarning fond bozori operatsiyalarida sust ishtirok etishini asosan infratuzilmaviy cheklovlar, investitsion madaniyatning yetarli shakllanmaganligi va uzoq muddatli moliyaviy instrumentlar bozorining torligi bilan izohlaydilar. Shu bilan birga, ular banklarning investitsiya bo'limlarini rivojlantirish orqali bozor likvidligini oshirish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab beradilar.

Sh.Sh. Maxmudov, D.Z. Abdullayev va M.G'. Sultonovlarning ilmiy ishlari tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini moliyaviy barqarorlik bilan bog'lab tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu tadqiqotlarda bank kapitalining fond bozori instrumentlari orqali jalb qilinishi, bank balansining barqarorligi va resurs bazasining mustahkamlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi. Mualliflar, shuningdek, banklar uchun qimmatli qog'ozlar bozorida ishtirok etish risk-menejment tizimini takomillashtirishni talab qilishini alohida qayd etadilar.

I. Avezov, U. Xalilov va J. Sheratovlarning ishlari moliyaviy savodxonlik va investitsion muhit omillarini chuqur tahlil qilishga bag'ishlangan. Ularning fikricha, aholining fond bozori instrumentlari haqidagi bilimlari past bo'lgan sharoitda tijorat banklarining emissiya faoliyati kutilgan natijani bermaydi. Shu sababli, banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faolligini oshirish aholining investitsion xulq-atvorini o'zgartirish bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida ko'riladi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda ushbu masala yanada kengroq institutsional va makroiqtisodiy kontekstda yoritilgan. F. S. Mishkinning "The Economics of Money, Banking, and Financial Markets" asarida tijorat banklarining kapital bozoridagi roli moliyaviy vositachilikning evolyutsiyasi doirasida tahlil qilinadi. Muallif banklarning qimmatli qog'ozlar bozori orqali resurs jalb etishi moliyaviy tizim samaradorligini oshirishi va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashini nazariy jihatdan asoslaydi. A. Saunders va M. Cornett tomonidan yozilgan "Financial Institutions Management" asarida esa banklarning investitsion faoliyati, fond bozori operatsiyalari va risklarni boshqarish mexanizmlari o'zaro bog'liq holda o'rganiladi hamda qimmatli qog'ozlar bozoridagi faol ishtirok banklarning strategik raqobatbardoshligini oshirishi ko'rsatiladi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini kengaytirish institutsional islohotlar, infratuzilmani rivojlantirish, moliyaviy savodxonlikni oshirish va xalqaro tajribani moslashtirish bilan uzviy bog'liq jarayon hisoblanadi. Mazkur tadqiqotlar ushbu maqolada banklarning fond bozoridagi ishtirokini chuqurlashtirish bo'yicha ilmiy-nazariy asos sifatida xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni ilmiy tahlil qilishning statistik, taqqoslama, fundamental hamda funksional tahlil usullari qo'llanildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Qimmatli qog'ozlar — o'z egasiga mulkka egalik huquqini va daromad ko'rinishida muayyan pul summasini olish huquqini beradigan pul yoki tovar hujjatlari (aksiya, obligatsiya, akkreditiv, veksel, chek va boshqalar). Qimmatli qog'ozlar taqdim etuvchi yoki egasining ayrim huquqlari qayd etilgan, maxsus tarzda rasmiylashtiriladigan moliyaviy hujjatdir. Qimmatli qog'ozlar ma'lum shaxs nomiga yozilgan (ismli), dastlab sotib olgan shaxs nomiga yozilgan va uning roziligi bilan boshqa shaxsga o'tkaziladigan orderli hamda egasi yozilmaydigan (egasi ko'rsatilmaydigan) turlarga bo'linadi. Korxonalarning aksiyalari, obligatsiyalari va davlat obligatsiyalari qimmatli qog'ozlarning asosiy turlari hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar korxona kapitalida qatnashish yoki pulni ssudaga taqdim etish hamda dividend yoki foiz tarzida daromad olish huquqini beradi. Qimmatli qog'ozlar o'z egasiga daromad keltirgani uchun fond birjasida ma'lum kurs bo'yicha oldi-sotdi qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida qimmatli qog'ozlar muomalasini tartibga soluvchi asosiy hujjat — bu O'zbekiston Respublikasining 03.06.2015 yildagi "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi O'RQ-387-son¹ Qonuni hamda unga asoslangan, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan nizomlar hisoblanadi.

Mazkur Qonunga ko'ra, qimmatli qog'ozlar — bu mulkiy huquqlarni yoki moliyaviy majburiyatlarni tasdiqlovchi hujjatlar bo'lib, ularning egalari (investorlar) muayyan daromad olish yoki moliyaviy resurslarga egalik qilish huquqiga ega bo'ladilar.

Qimmatli qog'ozlar haqidagi Qonunning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- qimmatli qog'ozlarning emissiyasi, joylashtirilishi va muomalada bo'lishi tartibini belgilash;
- emitentlar (ya'ni qimmatli qog'oz chiqaruvchilar) faoliyatini tartibga solish;
- investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish;
- qimmatli qog'ozlar bozorida shaffoflik va raqobat muhitini ta'minlash;
- qimmatli qog'ozlar emissiyasi bo'yicha davlat nazoratini amalga oshirish.

Nizomga ko'ra, O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar quyidagi turlarga bo'linadi.

Aksiya — bu korxonaning ustav kapitalidagi ulushni tasdiqlovchi qimmatli qog'oz bo'lib, uning egasiga dividend olish, korxona boshqaruvida ishtirok etish (aksiyadorlar yig'ilishida ovoz berish) hamda korxona tugatilganda qolgan mol-mulkdan ulush olish huquqlarini beradi.

Aksiyalar turlari:

- oddiy aksiyalar;
- imtiyozli aksiyalar.

Obligatsiya — bu emitent tomonidan ma'lum muddatda foiz yoki asosiy qarzni qaytarish majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog'oz. Obligatsiyalar asosan banklar, davlat yoki korporatsiyalar tomonidan chiqariladi hamda ular bo'yicha barqaror daromad (foiz) to'lanadi.

Obligatsiya turlari:

- davlat obligatsiyalari;
- korporativ obligatsiyalar;
- bank obligatsiyalari.

Depozit va jamg'arma sertifikatlar — bu qimmatli qog'ozlar tijorat banklari tomonidan chiqarilib, mijozlarning depozit summasini va unga hisoblanadigan foizlarni tasdiqlaydi. Sertifikatlar qisqa muddatli (3–12 oy) bo'ladi va ikkilamchi bozorda sotilishi mumkin.

Veksel — bu qarzidor tomonidan kreditor foydasiga to'lovni amalga oshirish majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog'oz bo'lib, asosan xo'jalik subyektlari o'rtasidagi hisob-kitoblarda qo'llaniladi.

Opsion va fyucherslar (hosilaviy qimmatli qog'ozlar) — bu turdagi qimmatli qog'ozlar investorlarning kelajakdagi narx o'zgarishidan foyda olish imkonini beradi.

Qimmatli qog'ozlar bozori — bu moliya bozorining bir tarmog'i bo'lib, unda qimmatli qog'ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar, veksel, sertifikatlar va boshqalar) orqali kapitalni jalb qilish, joylashtirish va muomalada yuritish jarayonlari amalga oshiriladi. Ya'ni, bu bozor investorlar (pul egalari) bilan emitentlar (pulga muhtoj korxona, bank yoki davlat) o'rtasidagi moliyaviy vositachilik tizimini ifodalaydi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida qimmatli qog'ozlar bozori tahlili (2025- yil 1-yarim yillik holatiga ko'ra)²

Ko'rsatkich nomi	2025-yil (H1)	2024-yil (H1, taxminiy)	O'sish
Umumiy savdo hajmi	12,02 trillion so'm	0,707 trillion so'm	≈ 17 barobar oshgan
Bitimlar soni	214 851 ta	230 ming atrofida (2024)	Biroz kamaygan

¹ <https://lex.uz/docs/-2662539>

² UzDaily.uz — "O'zbekiston fond birjasi 2025-yil birinchi yarim yillik natijalari bo'yicha hisobot", 2025-yil 5-avgust. <https://www.uzdaily.uz/uz/post/87541>



O'rtacha kunlik savdo hajmi	97,7 milliard so'm	5,8 mlrd so'm atrofida (2024)	≈ 17 barobar oshgan
Bozor kapitalizatsiyasi (aksiyalar)	242,8 trillion so'm (≈\$ 19,2 mlrd)	210 trillion so'm (2023)	≈+15%
Free float (erkin aksiyalar ulushi)	4,09 trillion so'm	2,3 trillion so'm (2024)	≈+78%
Bozor kapitalizatsiyasi/ YalM nisbati	16,7%	14,1%(2023)	+ 2,6 % punkt

Ushbu jadvalda O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori statistikasi tasvirlangan.

Unga ko'ra, savdo hajmi 2025-yilda 2024-yilga nisbatan 17 barobar o'sgan (2024-yil H1 — 0,707 trln so'm → 2025-yil H1 — 12,02 trln so'm).

O'rtacha bitim qiymati 2024-yil H1 da ≈ 3 mln so'm, 2025-yil H1 da esa ≈ 56 mln so'mni tashkil etib, 18 barobar oshgan.

Bozor kapitalizatsiyasi 2023-yilda YalMning 14,1 % ini, 2024-yilda esa 16,7 % ini tashkil qilgan (≈ +2,6 foiz punkt o'sish) (2-jadval).

2-jadval. Bozor segmentlari bo'yicha³

Segment turi	Savdo hajmi (2025 H1)	Izoh
Aksiyalar	11,93 trillion so'm	Bozor hajmining 99% dan ortig'i aksiyalar hissasiga to'g'ri keladi
Korporativ obligatsiyalar	69-94 milliard so'm	Har oyda o'rtacha shu diapazonda
Davlat obligatsiyalari	Taxminan 20-30 milliard so'm	Sekundar bozor faollashmoqda
Depozit sertifikatlari va boshqa vositalar	0,5 trillion so'm atrofida	Hozircha kichik segment

Aksiyalar — 11,93 trillion so'm. Bozor hajmining 99 % dan ortig'i aksiyalar hissasiga to'g'ri keladi. Korporativ obligatsiyalar — 69–94 milliard so'm. Har oyda o'rtacha shu diapazonda shakllanmoqda. Davlat obligatsiyalari — taxminan 20–30 milliard so'm. Sekundar bozor faollashmoqda. Depozit sertifikatlari va boshqa vositalar — 0,5 trillion so'm atrofida bo'lib, hozircha kichik segment hisoblanadi.

So'nggi yillarda mamlakatda kapital bozorini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar izchil va tizimli bosqichga kirdi. "Toshkent" Respublika fond birjasi faoliyatining raqamlashtirilishi, elektron savdo tizimlarining joriy etilishi hamda xalqaro tajribaning moslashtirilgan holda tatbiq etilishi qimmatli qog'ozlar bozorida institutsional mustahkamlanish va barqaror o'sish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirdi. Ushbu jarayonlar o'rta muddatda bozor likvidligini oshirish va investorlar sonini kengaytirish imkonini berishi kutilmoqda.

Ayni paytda qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanishning kengayish bosqichida bo'lib, tijorat banklarining ishtirokini chuqurlashtirish uchun sezilarli salohiyat mavjud. Banklar tomonidan investitsion faoliyatni faollashtirish, yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish va emissiya amaliyotlarini kengaytirish orqali bozor hajmining izchil oshishi prognoz qilinadi. Shuningdek, investitsion madaniyatni shakllantirishga qaratilgan maqsadli axborot va ta'lim dasturlarining kengaytirilishi aholi mablag'larini moliyaviy instrumentlarga yo'naltirishga bo'lgan ishonchni bosqichma-bosqich kuchaytirib, kapital bozorining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi (3-jadval).

3 jadval. Xorijiy mamlakatlarda qimmatli qog'ozlar bozori tahlili⁴

Mamlakatlar	Bozor kapitalizatsiyasi (trln \$)	Dunyo ulushi (%)	Asosiy indeks
AQSh	52	42%	S&P 500, NASDAQ
Xitoy	11	9%	SSE, CSI 300
Yaponiya	6,2	5%	Nikkei 225
Buyuk Britaniya	4,1	3%	FTSE 100
Germaniya	2,7	2%	DAX 40
Hindiston	5,0	4%	BSE SENSEX
Singapur	0,66	<1%	STI
O'zbekiston	0,02	<0,01%	UZSE indeks

³ UzDaily.uz (2025) — O'zbekiston fond birjasi faoliyati va bozor segmentlari bo'yicha 2025-yil 1-yarim yillik ma'lumotlar.

⁴ UzDaily.uz, UZSE.uz, Statista, va Shanghai Stock Exchange (2025).



Xorij mamlakatlarida qimmatli qog'ozlar bozori iqtisodiyotning yuragi hisoblanadi. U yerda mamlakat YalMining 100–150 % qismi fond bozori orqali aylanishda bo'ladi (masalan, AQShda ≈ 145 %, Yaponiyada ≈ 120 %). O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich 16,7 % ni tashkil etadi, bu esa rivojlanish uchun katta salohiyat mavjudligini anglatadi. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, moliyaviy savodxonlik, shaffoflik va raqamli infratuzilma fond bozorining muvaffaqiyat kalitidir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, banklar faoliyatini quyidagi yo'nalishlarda kengaytirish maqsadga muvofiq:

1. Innovatsion moliyaviy instrumentlarni joriy etish — "yashil obligatsiyalar" yoki "islomiy moliya" asosidagi qimmatli qog'ozlarni chiqarish.
2. Investitsion bank xizmatlarini rivojlantirish — mijozlarga kapital bozori bo'yicha maslahatchilik va portfel boshqaruvi xizmatlarini taklif etish.
3. Risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish — bozor tebranishlariga bardosh bera oladigan strategiyalarni ishlab chiqish.
4. Korporativ boshqaruvni kuchaytirish — ochiqlik, shaffoflik va hisobotlilik tamoyillariga amal qilish orqali investorlar ishonchini oshirish.

SQB bank 2021–2025-yillar oralig'ida O'zbekiston kapital bozorining eng faol ishtirokchilaridan biri bo'lib kelmoqda. Bank "Toshkent" Respublika fond birjasida bir necha emissiya orqali 500 milliard so'mdan ortiq obligatsiyalarni joylashtirgan. Ushbu emissiyalar orqali jalb qilingan mablag'lar iqtisodiyotning real sektorini kreditlash hamda bank infratuzilmasini modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan.

SQB obligatsiyalari barqaror foiz stavkasi va yuqori ishonchlilik darajasi bilan ajralib turadi. Jalb qilingan mablag'lar quyidagi yo'nalishlarga sarflangan:

- sanoat va xizmat ko'rsatish korxonalarini moliyalashtirish;
- kichik biznes va startaplarni kreditlash;
- raqamli bank xizmatlarini kengaytirish.

SQB 2023-yilda "SQB Invest" platformasini ishga tushirdi — bu onlayn brokerlik va investitsiya xizmatlarini ko'rsatishga mo'ljallangan tizimdir. Platforma yordamida mijozlar aksiyalar va obligatsiyalarni elektron tarzda sotib olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shuningdek, bank raqamli obligatsiyalar emissiyasini sinovdan o'tkazdi — bu O'zbekistonda ilk tajribalardan biridir. Bu nafaqat bankning o'z daromadlarini oshirdi, balki kapital bozorida ishonch muhitini mustahkamladi.

2023–2024-yillarda SQB bank Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (EBRD) hamda O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi bilan hamkorlikda bir nechta investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha shartnomalar imzolagan. Natijada bankning xorijiy investitsiyalarni jalb qilish salohiyati oshgan va xalqaro moliya standartlariga yaqinlashgan.

2021–2025-yillar oralig'ida SQB bankning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faolligi shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari endi faqat an'anaviy kreditlash bilan cheklanmayapti. Ular kapital bozorining barqaror investitsion ustuni sifatida faol rol o'ynay boshladi.

SQB misolida ko'rinadiki, obligatsiyalar chiqarish bankning o'z likvidligini oshiradi va iqtisodiyotga qo'shimcha resurslar kiritadi. Umuman olganda, SQB tajribasi O'zbekiston tijorat banklari uchun kapital bozorida raqamlashtirish, investitsiya vositachiligi va ishonchli emissiya siyosatini rivojlantirishda namunal model hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarining ishtiroki bosqichma-bosqich kengayib borishi moliyaviy tizim barqarorligini mustahkamlash, investitsion muhitni chuqurlashtirish va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun muhim institutsional zamin yaratadi. Ushbu jarayonda innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va xalqaro amaliyotni tatbiq etish tijorat banklarining bozor infratuzilmasidagi rolini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishi kutiladi. Natijada banklar va fond bozori o'rtasidagi o'zaro integratsiya milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Hozirgi bosqichda O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar rivojlanishning dastlabki va o'sish salohiyati yuqori bo'lgan bosqichida turibdi. Bu holat bozorni chuqurlashtirish va yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi ishtiroki asosan kreditlashdan tashqari faoliyat turlarini diversifikatsiya qilish jarayonida bosqichma-bosqich kengayib bormoqda. Kelgusida banklarning investitsion strategiyalarni shakllantirishi, texnologik bazani mustahkamlashi va kadrlar salohiyatini oshirishi orqali fond bozori operatsiyalaridagi faolligi sezilarli darajada ortishi prognoz qilinadi.

Aholi va tadbirkorlar o'rtasida moliyaviy savodxonlikni oshirish jarayoni strategik ahamiyat kasb etib, aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa moliyaviy instrumentlarning afzalliklarini tushuntirish orqali ichki investorlar bazasini kengaytirish imkonini beradi. Ushbu yo'nalishdagi tizimli ta'lim va axborot siyosati banklar tomonidan chiqariladigan qimmatli qog'ozlarga bo'lgan talabni barqaror oshirishga xizmat qiladi.



Qimmatli qog'ozlar bozorining infratuzilmasi modernizatsiya bosqichida bo'lib, savdo platformalari, kliring va hisob-kitob tizimlarini to'liq raqamlashtirish bozor samaradorligini oshirish uchun muhim omil hisoblanadi. Raqamli xizmatlarning kengayishi investorlar uchun qulaylikni oshirib, operatsion xarajatlarni kamaytirishi kutiladi.

Axborot shaffofligini kuchaytirish banklar va investorlar o'rtasida ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Qimmatli qog'ozlar emissiyasi bo'yicha ochiq va tezkor ma'lumotlar bazalarining rivojlanishi investitsiya qarorlarining sifatini oshiradi hamda bozor likvidligini rag'batlantiradi.

Xorijiy investorlar uchun bozorga kirish shartlarini bosqichma-bosqich soddalashtirish, valyuta, litsenziyalash va soliq mexanizmlarini optimallashtirish orqali xalqaro kapital oqimini jalb etish imkoniyatlari kengayadi. Bu jarayon O'zbekiston fond bozorining mintaqaviy va global integratsiyasini kuchaytiradi.

Tijorat banklarining likvidlik ko'rsatkichlarini mustahkamlash, Markaziy bank tomonidan qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlarni kengaytirish orqali qimmatli qog'ozlar emissiyasi banklar uchun muqobil va barqaror moliyalashtirish manbaiga aylanishi mumkin.

Umuman olganda, banklarda investitsiya bo'limlarini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash, raqamli platformalarni joriy etish, blockchain va repo mexanizmlarini sinovdan o'tkazish hamda moliyaviy hisobotlarni IFRS asosida oshkor etish orqali qimmatli qog'ozlar bozori o'rta muddatda sezilarli darajada faollashishi prognoz qilinadi. Ushbu chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi tijorat banklarini kreditlash markazidan universal moliyaviy institutlarga aylantirib, milliy kapital bozorining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.04.2021 yildagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5371091>
2. Kapital bozorini rivojlantirish agentligi ma'lumotlari — www.cma.uz.
3. Mishkin F. S. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. Pearson Education, 2021.
4. Saunders A., Cornett M. Financial Institutions Management. McGraw-Hill, 2022.
5. Eurasian Development Bank (EDB). (2025). Islamic Finance Prospects in Central Asia: Sukuk Market Development. EDB Analytical Report, 11.
6. Allen, F., & Carletti, E. (2018). Banks, Markets and Liquidity. European Economic Review, 107, 69–89.
7. Levine, R. (2019). Finance, Growth, and Economic Prosperity: The Role of Capital Markets. Journal of Economic Perspectives, 33(3), 45–68.
8. Ubaydullayev, D. Z. (2024). Increasing the Activity of Commercial Banks in the Stock Market: Challenges and Perspectives. Scholar Express, 3.
9. Sulaymonov, I. (2023). The Securities Transactions of Commercial Banks in Uzbekistan. Yashil Iqtisodiyot Taraqqiyot.
10. Park, Y. J., & Kim, S. H. (2021). Commercial Banks and Securities Market Development in Emerging Asia. Asian Economic Papers, 20(2), 87–112.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
